



**Afg'oniston tarixida ayollarning huquqlarining evolyutsiyasi:
an'anaviy jamiyatda zamonaviy davrgacha**

Abdug'afforova Dildora

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti "Tarix va filologiya"

yo'nalishi III bosqich talabasi

dildoraabdugaffarova52@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Afg'oniston tarixida ayollar huquqlarining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy bosqichlar asosida tahlil qilinadi. XX asrdan boshlab XXI asrgacha bo'lgan davrda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotdagi o'rni, ularning huquqiy maqomi hamda turli siyosiy tuzumlarning ayollar hayotiga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy davrda ayollar huquqlarini ta'minlash borasida yutuqlar va mavjud muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Afg'oniston, ayollar huquqlar, muammolar, huquqiy maqom, madaniy, siyosiy.

Аннотация: В данной статье на основе исторических этапов анализируется формирование и развитие прав женщин в истории Афганистана. Рассматривается роль женщин в социально-экономической, политической и культурной жизни, их правовой статус, а также влияние различных политических режимов на жизнь женщин в период с XX по XXI век на основе научных источников. Кроме того, анализируются



достижения и существующие проблемы в обеспечении прав женщин в современный период.

Ключевые слова: Афганистан, права женщин, проблемы, правовой статус, культурный, политический.

Abstract: This article analyzes the formation and development of women's rights in the history of Afghanistan based on historical stages. It examines the role of women in socio-economic, political, and cultural life, their legal status, and the impact of various political regimes on women's lives from the twentieth to the twenty-first century, drawing on scholarly sources. In addition, the article analyzes the achievements and existing challenges in ensuring women's rights in the contemporary period.

Keywords: Afghanistan, women's rights, problems, legal status, cultural, political.

XX asr boshlarida Afg'onistonda ayollar huquqlarini kengaytirishga qaratilgan dastlabki davlat islohotlari Amir **Amonullohxon** (1919–1929) hukmronligi davrida boshlandi. U 1923-yilgi Konstitutsiya orqali fuqarolik huquqlarini mustahkamlashga intildi hamda ayollarni ta'lim tizimiga jalb qilish, majburiy nikoh va ko'p xotinlilikni cheklash, qizlar maktablarini ochish kabi islohotlarni amalga oshirdi. Malika Soraya Tarziy esa ayollarning ta'lim olishi va jamoat hayotida ishtirok etishini faol qo'llab-quvvatladi. Biroq mazkur islohotlar qabila oqsoqollari va diniy konservativ kuchlarning qarshiligiga uchrab, 1929-yilda Amonullohxon hokimiyatdan ag'darildi.



U davlat boshqaruvi, ta'lim, sud-huquq tizimi va ijtimoiy hayotda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. Ushbu islohotlarda ayollarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi.¹

1923-yilda qabul qilingan Afg'oniston Konstitutsiyasi mamlakat tarixidagi ilk zamonaviy konstitutsiyalardan biri bo'lib, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini huquqiy jihatdan tartibga soldi. Garchi Konstitutsiyada erkak va ayollarning teng huquqliligi to'liq ifodalanmagan bo'lsa-da, u ayollarning ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash, majburiy nikohlarni kamaytirish va davlatning ijtimoiy islohotlarini amalga oshirish uchun huquqiy asos yaratdi.²

Amonullohxon hukumatining eng muhim tashabbuslaridan biri ayollar ta'limini rivojlantirish edi. Kobul shahrida qizlar uchun zamonaviy maktablar ochildi, bir guruh afg'on qizlari oliy ta'lim olish maqsadida Turkiya va Yevropaga yuborildi. Bundan tashqari, ayollar savodxonligini oshirishga qaratilgan maxsus kurslar tashkil etildi. Bu tadbirlar Afg'oniston tarixida ayollarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan ilk ta'lim siyosati sifatida baholanadi.³

Mazkur islohotlarni amalga oshirishda Amirning rafiqasi **Malika Soraya Tarziy** alohida o'rin tutdi. U Afg'onistonda ayollar huquqlari tarafdori sifatida tanilib, ayollarning ta'lim olishi, mehnat qilishi va davlat hamda jamoat ishlarida faol ishtirok etishini targ'ib qildi. Soraya Tarziy ommaviy tadbirlarda pardasiz qatnashishi orqali ayollarning jamiyatdagi o'rni haqidagi an'anaviy qarashlarni

¹ Vartan Gregorian, *The Emergence of Modern Afghanistan: Politics of Reform and Modernization, 1880–1946*. Stanford University Press, 1969, pp. 227–241.

² Thomas Barfield, *Afghanistan: A Cultural and Political History*. Princeton University Press, 2010, pp. 181–186.

³ Senzil K. Nawid, *Religious Response to Social Change in Afghanistan, 1919–1929*. Mazda Publishers, 1999, pp. 75–90.



o'zgartirishga harakat qildi. Uning tashabbusi bilan **"Irshad an-Nisvon"** ("Ayollar yo'l-yo'rig'i") nomli ayollar jurnali nashr etilib, unda ta'lim, sog'liqni saqlash, oila va ayollar huquqlariga oid maqolalar chop etildi.⁴

Hukumat tomonidan nikoh va oilaviy munosabatlarni tartibga solishga ham alohida e'tibor qaratildi. Majburiy nikoh, voyaga yetmagan qizlarni turmushga berish va haddan tashqari katta miqdordagi qalin (kelin puli) kabi odatlarni cheklashga qaratilgan choralar ko'rildi. Ushbu islohotlarning maqsadi ayollarning shaxsiy huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini oshirishdan iborat edi.⁵ Biroq Amonullohxonning modernizatsiya siyosati mamlakatning qabila tuzumi kuchli saqlanib qolgan hududlari hamda diniy ulamolar tomonidan keskin tanqid qilindi. Ayniqsa, ayollarning kiyinish madaniyati, ta'lim olishi va jamoat hayotidagi faolligiga oid yangiliklar an'anaviy qadriyatlarga zid deb baholandi. Natijada mamlakatning turli hududlarida qo'zg'olonlar boshlandi va 1929-yilda Amonullohxon taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi. Uning islohotlarining aksariyati bekor qilindi, ayollar huquqlarini kengaytirishga qaratilgan ko'plab tashabbuslar to'xtatildi. Shunga qaramay, tarixchilar Amonullohxon davrini Afg'onistonda ayollar huquqlarini davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilk jiddiy urinish sifatida baholaydilar.⁶

1933–1973-yillarda Muhammad Zohirshoh hukmronligi davrida ayollar masalasida ehtiyotkor modernizatsiya siyosati olib borildi. 1964-yilgi Konstitutsiya ayollarga saylash va saylanish huquqini berdi, davlat xizmatida

⁴ Nancy Hatch Dupree, *Women in Afghanistan*. Afghanistan Council, Asia Society, 1978, pp. 15–24.

⁵ Hafizullah Emadi, *Repression, Resistance and Women in Afghanistan*. Praeger, 2002, pp. 18–24.

⁶ Vartan Gregorian, *The Emergence of Modern Afghanistan*, Stanford University Press, 1969, pp. 245–252.



ishlash, oliy ta'lim olish va siyosiy faoliyat yuritish imkoniyatlarini qonuniy jihatdan kafolatlab. Shu davrda ayollar parlament a'zosi, vazir va davlat xizmatchisi sifatida faoliyat yuritish boshladilar. Biroq ushbu o'zgarishlar asosan Kobul va yirik shaharlarda sezildi, qishloq hududlarida esa an'anaviy patriarxal munosabatlar saqlanib qoldi.

1978-yilda hokimiyatga kelgan Afg'oniston Xalq Demokratik partiyasi ayollar tengligini davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylantirdi. Nikoh yoshining oshirilishi, qizlar uchun majburiy ta'lim, kelin puli (bride price) amaliyotini bekor qilish hamda ayollarni davlat boshqaruvi va mehnat bozoriga keng jalb etish bo'yicha islohotlar amalga oshirildi. 1990-yillarga kelib shaharlarda maktab o'qituvchilarining qariyb 70 foizi, shifokorlarning 40 foizi va davlat xizmatchilarining yarmiga yaqini ayollarni tashkil etgan. Biroq mazkur islohotlar fuqarolar urushi va qurolli qarama-qarshiliklar sabab barqaror natija bermadi. 1996–2001-yillarda Tolibonning birinchi hokimiyati davrida ayollar huquqlari keskin cheklab qo'yildi. Ayollarning ishlashi, maktab va universitetlarda o'qishi, siyosiy hayotda ishtirok etishi taqiqlandi. Ular erkak qarindoshisiz tashqariga chiqishi mumkin emas edi va deyarli barcha jamoat faoliyatidan chetlashtirildi. Natijada ayollarning iqtisodiy mustaqilligi va jamiyatdagi faolligi deyarli yo'qoldi.

2001–2021-yillar oralig'ida xalqaro hamjamiyat ko'magida ayollar huquqlarini tiklash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. 2004-yilgi Konstitutsiya erkaklar va ayollarning tengligini e'tirof etdi, parlamentda ayollar uchun kvotalar joriy qilindi hamda Afg'oniston 2003-yilda Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi



Konvensiyani (CEDAW) ratifikatsiya qildi. Ushbu davrda millionlab qizlar maktabga qaytdi, minglab ayollar davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va fuqarolik jamiyati institutlarida faoliyat yuritdi. 2021-yil avgust oyida Tolibon hokimiyatni qayta egallagach, ayollar huquqlari yana keskin qisqardi. Qizlarning o'rta va oliy ta'lim olishi taqiqlandi, ayollarning ko'plab davlat idoralari va nodavlat tashkilotlarda ishlashi cheklab qo'yildi, erkin harakatlanish, sport bilan shug'ullanish va jamoat joylariga borish bo'yicha yangi taqiqlar joriy etildi. **UN Women** ushbu holatni ayollarni jamoat hayotidan tizimli ravishda siqib chiqarish siyosati sifatida baholaydi.

Shunday qilib, XX asrdan XXI asrgacha bo'lgan davr Afg'oniston ayollari uchun keskin qarama-qarshi bosqichlardan iborat bo'ldi. Liberal islohotlar davrida ayollarning huquqiy maqomi mustahkamlangan va ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshgan bo'lsa, konservativ siyosiy tuzumlar davrida bu huquqlar sezilarli darajada cheklangan. Mazkur tarixiy tajriba Afg'onistonda ayollar huquqlarining rivojlanishi mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, huquqiy davlat tamoyillari va xalqaro hamkorlik bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Afg'oniston zamonaviy tarixida ayollarning jamiyatdagi o'rnini mamlakatning siyosiy taraqqiyoti, davlat boshqaruvi va ijtimoiy islohotlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib kelgan. XX asr boshidan boshlab mamlakatda modernizatsiya siyosatining kuchayishi ayollar ta'limi, mehnat faoliyati va huquqiy maqomini yaxshilashga qaratilgan dastlabki islohotlarni yuzaga keltirdi. Biroq keyingi siyosiy beqarorlik, davlat to'ntarishlari, fuqarolar



urushi va hokimiyat almashinuvi natijasida ayollarning huquqiy maqomi bir necha bor keskin o'zgarib bordi.⁷

Bugungi kunda Afg'oniston ayollar huquqlari eng ko'p muhokama qilinayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 2021-yilda Tolibon hokimiyatni qayta egallagandan so'ng ayollarning ta'lim olishi, mehnat qilishi, siyosiy hayotda ishtirok etishi hamda erkin harakatlanishiga oid yangi cheklovlar xalqaro hamjamiyat tomonidan jiddiy tanqid qilindi. Shu sababli Afg'onistonda ayollar huquqlarining tarixiy rivojlanishini o'rganish nafaqat tarix fani, balki siyosatshunoslik, huquqshunoslik va gender tadqiqotlari uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

XX asrdan XXI asrgacha bo'lgan davrda Afg'onistonda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotdagi o'zni mamlakatda yuz bergan siyosiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib bordi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ayollarning huquqiy maqomi va jamiyatdagi mavqei barqaror taraqqiyot yo'lidan emas, balki siyosiy tuzumlarning almashinuvi ta'sirida keskin o'zgarib turgan.

Amonullohxon hukmronligi davrida boshlangan modernizatsiya islohotlari ayollar ta'limi, huquqiy himoyasi va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan dastlabki muhim qadamlar bo'ldi. Keyinchalik Zohirshoh davrida qabul qilingan 1964-yilgi Konstitutsiya ayollarga saylash va saylanish huquqini berib, ularning davlat boshqaruvi hamda ta'lim tizimidagi ishtirokini kengaytirdi. Shu bilan birga, mazkur islohotlarning ta'siri asosan shaharlarda kuzatilib, qishloq hududlarida an'anaviy urf-odatlar va patriarxal munosabatlar saqlanib qoldi.

⁷ Thomas Barfield. *Afghanistan: A Cultural and Political History*. Princeton University Press, 2010.



1978–1992-yillarda hukumat tomonidan gender tengligini ta'minlashga qaratilgan siyosat olib borilgan bo'lsa-da, uzoq davom etgan qurolli mojarolar va siyosiy beqarorlik ushbu islohotlarning barqaror natija berishiga to'sqinlik qildi. 1996–2001-yillardagi birinchi Tolibon hokimiyati davrida esa ayollarning ta'lim olishi, mehnat qilishi va jamoat hayotida ishtirok etishi deyarli to'liq cheklab qo'yildi. 2001–2021-yillar oralig'ida xalqaro hamjamiyat ko'magida ayollar huquqlarini tiklash va rivojlantirish borasida muhim natijalarga erishildi. Millionlab qizlar maktablarga qaytdi, oliy ta'lim olayotgan talabalar soni ortdi, ayollar parlament, davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash va fuqarolik jamiyati institutlarida faol ishtirok eta boshladilar. Biroq ushbu yutuqlar 2021-yilda Tolibon hokimiyatni qayta egallagach sezilarli darajada cheklab qo'yildi.

Hozirgi kunda Afg'onistonda ayollar huquqlari masalasi xalqaro hamjamiyatning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Ta'lim, mehnat, siyosiy ishtirok va erkin harakatlanish sohalaridagi cheklovlar nafaqat ayollarning shaxsiy huquqlariga, balki mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, inson kapitalining shakllanishi va barqaror taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Afg'onistonda ayollar huquqlarining ta'minlanishi demokratik boshqaruv, qonun ustuvorligi, ta'lim tizimining rivojlanishi va xalqaro hamkorlik bilan bevosita bog'liqdir. Ayollarning ta'lim olishi, iqtisodiy mustaqilligi va siyosiy hayotdagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash mamlakatda tinchlik, ijtimoiy barqarorlik va uzoq muddatli taraqqiyotni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nargis Nehan. *The Rise and Fall of Women's Rights in Afghanistan*. **LSE Public Policy Review**, 2022. DOI: 10.31389/lseppr.59.
2. *The Taliban and Women's Human Rights in Afghanistan: The Way Forward*. **The International Journal of Human Rights**, 2024.
3. Mosamim, M. *75 Years of Women Representation in Afghanistan: Looking Back to Look Forward*. **Public Administration and Development**, 2024.
4. **UN Women**. *Gender Alert No. 2: Women's Rights in Afghanistan One Year after the Taliban Take-over*, 2022.
5. **UN Women**. *Afghanistan Gender Profile 2024*.
6. **Human Rights Watch**. *We Have the Promises of the World: Women's Rights in Afghanistan*, 2009.
7. United Nations Women (UN Women). *Afghanistan Gender Profile 2024*. New York, 2024.
8. UNESCO. *Afghanistan: Four Years On, 2.2 Million Girls Still Banned from School*. Paris: UNESCO, 2025.
9. Human Rights Watch. *We Have the Promises of the World: Women's Rights in Afghanistan*. New York, 2009.
10. Human Rights Watch. *World Report 2025: Afghanistan*. New York, 2025.
11. Amnesty International. *The Taliban's War on Women: The Crime Against Humanity of Gender Persecution in Afghanistan*. London, 2023.
12. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). United Nations, 1979.